

BUYRAK USTI BEZI

Shermuhammedova Visola G'ayratovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

Davolash ishi fakulteti 402-guruh talabasi:

Ilmiy raxbar: Davronova Aziza Davronovna

Annotatsiya: Buyrak usti bezining anatomik, fizalogik va gistalogik tuzulishi. Buyrak bilan buyrak usti bezinning bog'liqligi. Ichki sekiritsiya bezlagi kirishining sabablari. Buyrak usti bezining ishlab chiqaradigan garmonlari va ularning tasir mehanizmlarini tubdan o'rganish. Buyrak usti bezining qon bilan taminlanishi va nerv sistemasi orqali boshqarilishi. Bu kasaliklarning oldini olish va davolash ishlari.

Kalit so'zlar: Buyrak , shamollash, garmon, bez.

Maqola mazmuni: Buyrak usti bezi ichki sekiritsa bezlar guruhiga kirib organizmda ma'hum funksiyalarni bajaradi. Lotincha nomlanishi – glandula suprarenalis deb ataladi. Buyrak kabi juft bo'ladi yaniy har bir buyrakning ustida joylashgan. Buyrak usti bezi qalin yog qatlam bilan qoplangan bo'lib uni xarhil mehanik tasirlardan himoya qiladi. Buyraklarning joylashishi bir biridan farq qilganligi uchun buyrak usti bezlarining shaklini ham o'zgarishiga sabab bo'lgan. O'ng buyrak usti bezining shakli uch burchak shaklini olgan bo'lsa, chap buyrak yarim oysimon shakilni olgan. Buyrak usti bezining ikkita miya va po'st qismlari mavjud. Bu qismlar tuzulishi va vazifasi jixatdan bir biridan farq qiladi. Shu bilan birga ulardan ishlab chiqariladigan garmonlar ham katta farq qiladi. Buyrak usti bezining hujayralari genetik jihatdan po'stloq qismi epeteliy hujayralariga juda yaqin turadi. Ular uchta qismli sohadan tashkil topgan bular: tashqi - kaptokchali soha, o'rta – tutamli sohani va ichki – to'rli soha. Koptokchali sohada mineralokortikoidlar sintizlanadi. Tutamli sohasida glyukokortikoidlar sintiz bo'ladi. Buyrak usti bezi taraqqiyoti homlaning 4-5 haftasida ichki tutqich asosidagi ikkita selomik epeteliyning qalinlashgan sohasidan paydo bo'la boshlaydi. Shundan so'ng asta sekin buyrak usti bezining takomlashishi boshlanadi. Bunda barcha qon- tomir , nerv sistimalari paydo bo'la boshlaydi.

Buyrak usti po'stloq qismidandan ishlab chiqarilgan garmonlar yuqoridagi ko'rsatilgan guruhlarni tashkil qiladi. Bu garmonlar ichida glyukokortikoidlar katta faolyatni amalga oshiradi.

Garmonlarning vazifalari.

Mineralokortikoidlar: Na ni organizmda saqlanishi , K ni organizmdan chiqarilishi, yalig'lanishga olib keluvchi ta'siri.

Jinsiy garmonlar: Ikkilamchi jinsiy belgilarni rivojlantiradi, jinsiy funksiyalarning normallasuvi. Bu garmon yosh o'smir organizlarini voyaga yetqazishda muhim hisoblanadi. Bugarmonning yetishmovchiligi bolani voyaga yetishini sekinlashtirib yuboradi.

Glyukokortikoidlar: Adabtatsiyaning faollashuvi, glikozani to'qimalar orqali tutulishi, muskullarda oksidlanishning faollashuvi, limfosillarning parchalanishi, antitelolarning ajralishi, oqsillar parchalanishining faollashuvi, yalig'lanishlarga qarshi tasir, glikoneogenez, jigarda oqsillar sintezi.

Buyrak usti bezining mag'iz qismidan adrenalin va noradrenalin garmonlar ishlab chiqariladi. Bu ikkala garmon birgalikda katexolamin deb nomlanadi. Garmonlar ishlab chiqarilishida harhil mag'iz hujayralari ishtirok etadi. Vena qontomrlariga quyiladigan katexolaminlarning 80% ni adrenalin tashkil qiladi, qolgan 20% zi esa boshqa garmonlar tashkin qiladi. Bular quydagi funksiyalarni bajaradi: qorachiq kengayishi, gipertenziya, yurak ishini faollashtirish, giperglikeniya, yurakqisqarishlar energiyasini ortishi, bronxlarni kengaytiradi, teri tukchalarini to'g'irlanishi kabi hayotiy muhim vazifalarni amalga oshiradi. Hozirgi kunda buyrakning shamolashi tufayli buyrak usti bezi ham zarar ko'rishi aniqlangan. Natog'ri ovqatlanish, shaxsiy gigenaga roiya qilmaslik oqibatlaridaha bunday kasaliklar yuzaga kelib chiqadi. Buyrak usti bezining har bir qavati ning kasaliklari mavjud. Buyrak usti bezining po'stloq qavatini surunkali yetishmovchiligi Adisson kasaligi deb ataladi. Bu kasallikdan sababli bu bezning po'stloq qavati garmon ishlab chiqarmay qo'yadi. Barcha yoshdagi va barcha jinsdagi odamlarda birhil uchraydi. Adisson kasaligi to'sadan paydo bo'lib qoladigan kasalik hisoblanadi. Xalq orasida bu kasalik «Bronza kasaligi» name bilan ataladi. Bu kasalikni davolashda garmonlar o'rnini egalaydigan preparatlar buyuriladi va ular organizmga yetmayotgan garmonlarni qoplab beradi. Bu kasallikning belgilari :1. mushaklar kuchsizligi, holsizlik alomatlari 2. ishtahaning pasayishi, vazinining yo'qolishi 3. arterial qon bosimning ko'tarilishi, xushdan ketish 4. tuzlarga bo'lgan extiyoj ning ortishi va boshqa belgilari mavjud. Ko'pchilik shamollash kasalliklari buyrak usti bezining faolyatini buzib yuboradi bu esa organizmning harhil kasaligiga sabbachi bo'lib odam saloomatligiga jiddiy tasir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.X Shagzatova « Endokrinologiya»
2. I Ismailov « Endokrinologiya»
3. Mark S. *Nyu-York: Thieme Medical Publishers. 7 2010.*
4. Greenberg. »Neyroxirurgiya bo'yicha qo'llanma.«
5. Internet tarmoqlari.
6. «Qandli diabet sabablari»
7. «Qandli diabet turlari»